

**THE ROLE AND ROLE OF ADAPTATION IN THE WORK OF A MODERN TEACHER**

Nishonov Nodirbek Alimjanovich

Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies,  
Andijan Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education

Turgunov Bahrom Rakhimjonovich

Andijan Regional Center for Retraining and Advanced Training of  
Public Education Staff Pedagogy and Psychology, Educational Technologies  
Teacher of the Department

**ABSTRACT**

This article analyzes the process of school adaptation of teachers working in educational institutions on the example of different ages. There is also talk of the teacher's adaptation to the latest developments in education.

**Keywords:** PISA, adaptation, PIRLS, creativity, innovation, innovation

**INTRODUCTION**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-sون "Xalq ta'limi tizimida ta'lism sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Xalq ta'limi tizimida ta'lism sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Ta'lism sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment PISA 2021) ishtirok etish to'g'risidagi kelishuvga erishildi. PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi o'n besh yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qollay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi. Ta'lism sohasida yuz berayotgan bunday o'zgarishlar bugungi kun pedagogining yangiliklarga doimo moslashib, ulardan samarali foydalanish yo'llarini tahlil qila olish ko'nikmasi va malakasini o'zida shakllantirishi lozimligini anglatadi. Moslashuvchanlik aksariyat ilmiy adabiyotlarda "adaptatsiya" atamasi bilan hamohang keladi. Ushbu termin birinchi marotaba G.Aubert tomonidan XIX asrda fanga olib kiriladi. "Adaptatsiya" so'zi lotinchadan tarjima qilinganida "adaptatio"(moslashuv) degan ma'noni

bildirib, dastlab tabiiy fanlar doirasida biror mavjudotni o'zini o'rab turgan muhitiga moslashish mexanizmlari majmui sifatida keng qo'llaniladi. Keyinchalik adaptatsiya bir nechta fanlarning(hususan, psixologiyaning ham) tadqiqot predmetiga aylandi. Ushbu tushunchaga batafsil to'xtolib o'tamiz. N.F.Reymers tomonidan tuzilgan lug`atda adaptatsiya tushunchasi har tomonlama tahlil qilinadi(biologik, tibbiy va ekologik). 1) evolyutsiya jarayonida atrof muhitning o'zgarishlariga organizmning tashqi va ichki moslashuvi; 2) organlar, funksiyalar va organizmning o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashuvi; 3) har qanday tirik sistemanning tashqi muhitga javob reaksiyalari to'plami. Adaptatsiya 3 sathda namoyon bo'ladi: 1) fiziologik, 2) psixologik va 3) ijtimoiy. Fiziologik sathda organizmning normal faoliyat ko'rsatishi uchun tashqi muhit omillariga moslashuvchanligida namoyon bo'ladi.

Moslashuvchanlikning psixologik darajasida psixik holatlar, psixik hususiyatlar va strukturalarga bo'layotgan psixologik faktorlar ta'siriga moslashishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy adaptatsiya insonni o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhit, ushbu ijtimoiy vaziyatga beriladigan ijtimoiy baho, o'z imkoniyatlarini holis baholay olish, hayotiy maqsaddan kelib chiqib, sharoit va vaziyatlarga mos qarorlar qabul qilishida namoyon bo'ladi.

Individual psixologiyada A.Adler ijtimoiy-psixologik adaptatsiya fenomenini insonni o'z oldiga qo'ygan maqsadi va uni amalga oshirish usullarida namoyon bo'ladi deb hisoblaydi. A.Adler maqsadga erishishni 2 usuli haqida bayon qiladi:

1) Konstruktiv (hamkorlik) usul. Bunda shaxs o'zining salohiyatini to'laligicha namoyon qiladi. O'zligidan o'zib ketadi.

2) Konstruktiv bo'lмаган (qarshilik) usul. Bunday yondashuvda shaxs o'zgalardan o'zib ketishga intiladi.

A.A.Nalchadjyanning fikricha adaptatsiya bu ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, qulay muhit va sharoitda adaptatsiya jarayoniga olib keladi. Mana shu jarayon shaxs va gurux o'rtasidagi munosabatlardagi shaxsning konfliktlarsiz ish faoliyatini amalga oshirishda, guruxga ijtimoiy psixologik moslashuvini ta'minlaydi. Shu asnoda shaxsning asosiy ijtimoiy ehtiyojlari qondirilib, ijodiy qobiliyatları yuzaga chiqadi.

Ta'lim jarayonida bugungi kunda halqaro baholash dasturlariga alohida e'tibor qaratilmoqda PISA va PIRLS dasturlarining asosida kreativ va mantiqiy fikrlash mujassam. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

So'nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbos etyaptimi?" nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.).

O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti. Ta'lrim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta'lrim departamenti, 2013 y.).

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilar uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; SHternberg, 1985 y.).

Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani echishda talaba echimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri echimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti talabalarda ta'lrim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kretiv fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi (Boykin & Noguera, 2011, 2012; Marks, 2000, as cited in Jensen, 2013).

Kreativ tafakkurga ega pedagoglar:

- boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi;
- o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi;
- ba'zan mavzu aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi;
- echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;
- g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;
- muammoning echimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi :

- A. Ijodiy yo'nalanlik.
- B. Mantiqiy fikrlash qobiliyati
- C. Eruditsiya
- D. Boy tasavvurga egalik
- E. Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik.
- F. O'z ijodkorligini to'la to'kis namoyish etish.
- G. Refleksiya qobiliyati.
- H. Hissiyotga boylik.
- I. Tavakkal qila olish qobiliyati.
- J. Tafakkur tezligiga egalik.

- K. Ichki sezgining rivojlanganligi.
- L. O'ziga xos g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati.
- M. Innovatsion qobiliyatga egalik
- N. Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik
- O. Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

Shunga ko'ra ma'lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi

Kirton o'z tadqiqotlariga asoslanib adaptatsiya va innovatsiya nazariyasini yaratadi. Uning nazariyasiga asosan har bir odam muammolarni hal qila oladi va bunda kreativ yondasha oladi. Har bir shaxs muammoni o'ziga hos tarzda yechadi.

Adaptatsiya – innovatsiya bipolyar konstruktsiya hisoblanib, muammoni kim yechishini aniqlashga yordam beradi.

Adaptorlar muammoni “yaxshiroq” yechadi. Ular mavjud vaziyatdan (resurslar cheklangan holda) unumli foydalanishni biladilar. Kirton adaptorlarda quyidagi belgilarni ko'rdi:

- a) Muammoni topishdan ko'ra ularni hal qilishni ma'qul ko'rishadi;
  - b) Muammoni yechish usllarini anglashga harakat qilishadi;
  - c) Yuqori darajadagi aniqlik bilan va uzoq muddatli ishni qismlarga bo'lib amalga oshirishadi;
  - d) Qoidalar bo'yicha “o'ynaydilar”;
  - e) Guruxni his qila oladi hamda guruxiy munosabatlarni mustahkamlaydilar;
- Kirton innovatorlarga muammoni “o'zgacha” hal qiluvchilar sifatida qaraydi. Kirton innovatorlarda quyidagi belgilarni ko'rdi.
- a) Tartibsizlik, vazifalarga noodatiy rakurslardan yondashish;
  - b) Ko'z oldilarida faqat masad turadi. Qabul qilingan qarorlar va hatti-harakatlarga behurmatlik bilan yondashadi.
  - c) Qarorlar doimo o'zgarib turadi.

Yuqoridagi fikrlarning davomi sifatida shunday hulosa qilishimiz mumkunki:

1. Ta'limdagi yangiliklar o'qituvchi fiziologiyasida va psixologiyasida sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlarga olib keladi.
2. Har qanday yangilikka moslasha olish natijasida pedagogning kvalifikatsiyasi oshib boradi.
3. O'zgarishlar kuchli stresslarga sabab bo'ladi va adaptatsiyagini stressni yengillashishiga sabab bo'ladi.
4. Kreativlik, novatorlik va adaptatsiya o'zaro bir-biriga bog'liq jarayonlar ekanligi.

Bugungi kun pedagogi bugungi kun talablariga javob berolmas ekan, bugungi kun talablariga javob bera oladigan kadrlarni yetkazib berolmaydi. Shuning uchun halqaro darjadagi pedagoglar tayyorlashda halqaro darajadagi talablar va huddi shunda adabiyotlar bilan ishlay oladigan, kreativ fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlash maqsida muvofiq hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dolgorukov A. Metod case-study kak sovremennoy texnologiyi professionalno-orientirovannogo obucheniya: <http://www.vshu.ru/lections>.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
4. Saveleva M.G. Pedagogicheskie keys: konstruirovaniye i ispolzovaniye v protsesse obucheniya i otsenki kompetensiy studentov / Ucheb.-met.posobie. –
5. Sbornik keyssov dlya vuzov po dissiplinam gumanitarnogo i sotsialno-ekonomiceskogo sikla / Ucheb.-met.posobie. – SPb.: Izd-o Sankt-Peterburgskogo universiteta upravleniya i ekonomiki, 2015. – S. 3.
6. Kirton M. Adaptors and innovators: A description and measure // Journal of Applied Psychology. 1976. Vol. 61 (5). P. 622–629.
7. Kirton M.J. Adaption-innovation: In the context of diversity and change. New York, NY: Routledge, 2003.
8. Koschate-Fischer N., Schwille E. Mediation analysis in experimental research // Handbook of Market Research. 2017. P. 1–49. DOI: 10.1007/978-3-319-05542-8\_34-1.